

**O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATGAN MADANIYAT
XODIMI RAHMIDDIN MAMADALIYEVICH QIPCHAQOV IJODIY
FAOLIYATIGA NAZAR**

**ВЗГЛЯД НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РАХМИДДИНОВА
МАМАДАЛИЕВИЧ КИПЧАКОВА, РАБОТНИКА КУЛЬТУРЫ
ОКАЗЫВАЮЩЕГО УСЛУГИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**A LOOK AT THE CREATIVE ACTIVITY OF RAHMIDDIN
MAMADALIYEVICH KIPCHAKOV, A WORKER OF CULTURAL
SERVICE IN UZBEKISTAN**

Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika-psixologiya va
San'atshunoslik fakulteti "Musiqiy ta'lif va madaniyat" kafedrasи
1-bosqich talabasi
Shaxinashodiyeva617@gmail.com.uz

Annotatsiya:

Ushbu maqolada – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Rahmaddin Mamadaliyevich Qipchaqovning ham ijodiy ham hayotiy faoliyati haqida tushunchalar, yozgan asarlari tarixi va kelib chiqishi haqida ma'lumotlar berilgan. Rahmaddin Mamadaliyevich Qipchaqov ijodiy yo'li tomon nazar.

Kalit so'zlar: musiqa, nota, hayot ijodi va musiqiy ijodi, asarlari , milliy cholg'ular, musiqiy madaniyat, o'zbek musiqa tarixi va h.k

Аннотация:

В данной статье представлен обзор творческой и жизненной деятельности заслуженного деятеля культуры Узбекистана Раҳмиддина Мамадалиевича Кипчакова. История и происхождение его произведений. Взгляд на творческий путь Раҳмиддина Мамадалиевича Кипчакова.





Ключевые слова: музыка, ноты, жизнь и музыкальное творчество, произведения, национальные инструменты, музыкальная культура, история узбекской музыки и др.



Abstract:

In this article, there are insights into the creative and life activities of Rahmaddin Mamadalievich Kipchakov, the honored culture worker in Uzbekistan. History and origin of his works. A look at the creative path of Rahmaddin Mamadalievich Kipchakov.

Keywords: music, sheet music, life and musical creativity, works, national instruments, musical culture, history of Uzbek music, etc.

Ustoz - doimo otangdek ulug‘ albatta.

O‘zbek milliy musiqasi va o‘zbek xalq cholg‘ulariga yo‘l yoritgan inson O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Rahmaddin Mamadaliyevich Qipchaqov ijodiy va hayotiy faoliyatiga yuzlansak, professional rubob prima ijrochisi va dirijyor. Rahmaddin Qipchaqov 1976-yil o‘rta maxsus ta’limi a’lochisi, Respublika madaniyati va san’atini rivojlantirishda yoshlarni tarbiyalashdagi o‘qituvchilik mahorati va fidokorona mehnati uchun 1989-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Rahmaddin Mamadaliyev Qipchaqov – 1936-yili 1-mayda ishchi oilasida tug‘ilgan. Otasi Qipchaqov Mamadali ishchi bo‘lib ishlab, 1942-yili “Ulug‘ Vatan” urushida halok bo‘lgan. Onasi Qipchaqova Hayitxon uy bekasi bo‘lganlar. R.Qipchaqov oilada katta farzand edi va 7 yoshida Farg‘ona shahridagi 1-sonli umumta’lim maktabida o‘qiydi. Ustozning musiqaga bo‘lgan qiziqishlari mакtab davridanoq rivojlanan boshlaydi. R.Qipchaqov maktabidagi musiqa ustozি Obidjon Shokirov xonasiga juda ko‘p kirar, musiqa dars mashg‘ulotlardan so‘ng ustozи Obidjon shokirov oldilarida har xil milliy o‘zbek cholg‘ularini ushlab ularni qo‘llari bila chertar va uning sevimli kasbiga ham aylana boshlaydi. Bu intilish va qiziqishlar so‘nib qolmaslik uchun har bir cholg‘u asboblarni olib chalib ko‘rsatadi. Sekin-asta chang pardalari bilan tanishib, kichik kuylarni ustozи Obidjon Shokirov bilan ijro eta boshlaydi. Shu paytda maktabda milliy cholg‘ularimizdan tashkil topgan ansambl

faoliyat olib borar edi. Doimo ansambl darslarida o‘tirar va barcha asarlarni yoddan chalar edi. 1947-yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan ansambllar aro ko‘rik tanlovda ishtirok etadilar, ansamblida R.Qipchqov chang cholg‘usini ijro qiladi va diplom, mukofotlar sovrindoriga aylanishadi. Shu kunlardan so‘ng uning musiqaga bo‘lgan qiziqishi yanada oshdi va uning hayoti shu kunlarda musiqa bilan bog‘lanib qalbiga muhrlana boshlaydi. 1949-yili Farg‘onada ilk bor musiqa makktabi ochiladi, musiqa maktab o‘qituvchisi Georgin Ilich Neporydkin kelib maktabdan 13 nafar o‘quvchidan 3 nafarini o‘z qo‘lida tahsil olish uchun olib ketadi va ularning doimiy vaqtłari musiqiy cholg‘ularni chalib kuylash bilan o‘tar edi.

Oradan ancha vaqtlar o‘tgach 1954-yili Toshkent Davlat Konservatoriyaning “xalq cholg‘ulari ijrochiligi” bo‘limiga rubob prima cholg‘usi yo‘nalishida qabul qilinadi. Konservatoriyaada rubob prima cholg‘usi bo‘yicha A.Bahromov sinfida, dirijyorlikdan A.I.Petrosyans qo‘lida tahsil oladi. 1956-yili respublika festivallari o‘tkazila boshladni. Konservatoriya bu tanlovda ishtirok etishi uchun “Yoshlik” jamoasini tuzdi. Bu ansamblga iqtidorli yoshlarni tanlab jalb qillishadi va ularning ichida R.Qipchaqov ham bo‘ladi. R.Qipchaqov keyinchalik qashqar rubob sinfida ham tahsil ola boshlaydi. So‘ngra vaqtlar davomida har bir cholg‘uni ma’lum bir darajada ijrochisiga aylanadi. R.Qipchaqov ustozlik faoliyatini boshlagan damlarida 60 dan ortiq xalq kuylari bastakor asarlari va qardosh xalqlar asarlarini orkestrlarga moslab notalashtirardilar. Ustoz fortepiano va qashqar rubob uchun juda ko‘p kuylarni qayta ishlagan edilar.

Rahmaddin Mamadaliyev Qipchaqovning qayta ishlagan **“Dilxiroj suytasi”** asari ustoz tomonidan yanada yorqinlashtirilgani haqida qisqacha tushuncha:

Ustozning qayta ishlagan asarlaridan biri bu o‘zbek xalq kuyi “Dilxiroj” asarini qayta ishlab uni “Dilxiroj suytasi” deb nomlaydilar. Bu asar juda ham go‘zal usullar uchun mo‘ljallangan va fortepiano jo‘rligida ijro etiladi. R.Qipchaqov tomonidan uch qismli bo‘lib asarning go‘zalligini tasvirlash uchun barcha imkoniyatlar kengaytirilgan. Birinchi qism kirish, ya’ni erkin sur’atda 4/4 o‘lchovida yozilgan bo‘lib, asarni kirish qismini tantanovor tarzda tashkillaydi. Ikkinci qism ham albatta, alohida xususiyatga ega bo‘lgan yaxlit kuy va nihoyat asarni yorituvchi qism dilxiroj qismiga o‘tiladi. Asar ijro etilgan asarning mazmun mohiyati tushunilib anglangan holda ijro qilinishi va tinglovchining qalbidan joy olishi katta ahamiyat

kasb etadi. Kuy davomida muallif tomonidan qo‘yilgan shtrixlar va dinamik belgilariga rioya qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

R.Qipchaqovning qayta ishlagan barcha asarlari:

- 1) “Raqs”
- 2) “Ashula va Raqs”
- 3) “Raqossasidan”
- 4) “Sharob I”
- 5) “Farg‘onacha tanovor”
- 6) “Qo‘shchinor”
- 7) “Tarje’ Navo”
- 8) “Qizlar valsi”
- 9) “Vatan sevgisi”
- 10) “Vatan sevgisi”
- 11) “Marg‘ilon qizlari”
- 12) “Nay yallasi”
- 13) “Dilxiroj syuitasi”

kabi asarlarni yanada go‘zallashtirganlar va bu asarlar to hozirgi kunga qadar ijrochilar tomonidan ijro qilinadi va tomoshabinlar tomonidan maroq bilan tinglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Qahhorov. T. – “Torlar sadosi”.
- 2) “Xalq cholg‘ulari ijodiyoti” - 2005.
- 3) I.Akbarov “Muzika lug‘ati”. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1997.